

## FEATURES OF ARABIC PHILOSOPHY

Askarov Abdurashid Murodjonovich

International Islamic Academy of Uzbekistan

Department of Arabic Language and Literature, Al-Azhar

Associate Professor, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

This article explores the science of balaghah, comprehension of its contents: ilm al-maani, ilm al-bayan, ilm al-badi, the history of the occurrence of these sciences, and its role on studying the oral and written heritage of ancestors, scholars and the genre of Iltifat is also described.

*Key words:* science of balaghah, books, comprehension of its contents: ilm al-maani, ilm al-bayan, ilm al-badi, genre Iltifat.

Ushbu maqolada arab tilining balog‘at fani, uning tarkibidagi ilmu-l-bayon, ilmu-l-ma’oniyy va ilmu-l-badi’ haqida, ushbu san’atlarning yuzaga kelish tarixi, hamda, ushbu ilmlarni ajdodlardan qolgan og‘zaki va yozma ma’naviy merosni o‘rganishdagi ahamiyati, iltifot janri haqida bayon qilindi.

Эта статья исследует “илм ал-баляга” и его содержания: илм ал-баян, илм алмааний и илм ал-бадиъ, историю возникновения этих наук, а также их роль в изучение устного и письменного наследия предков и ученых, также описан жанр Мажаз.

*Tayanch so‘zlar:* arab tili balog‘at fani, balog‘at faniga oid asarlar, ilm ul ma’oniyy, ilm ul bayon, ilm ul badi’, iltifot janri.

*Ключевые слова:* илм ал-баляга, илм ал-маани, илм ал-баян, илм ал-бади, Мажаз.

Islom davrida Qur‘on i’jozini o‘rganish va adabiy tanqid faoliyatining kengayishi tufayli balog‘at ilmi jadal rivojlana boshladi.

Adabiy tanqid va Qur'on ma'nosini tushunish uchun qilingan turli tadqiqotlardan balog'at ilmi rivojini to'rt davrga bo'lib o'rganish mumkin<sup>1</sup>.

Balog'at ilmi rivojlanishining birinchi bosqichi X asr oxirigacha davom etgan bo'lib, bu davrda balog'at ilmi til va adabiyot, tafsir va ilohiyot ilmlari bilan birgalikda tadqiq etilgan. Bundan asosiy maqsad Qur'onni to'g'ri anglashga qaratilgan edi. Darhaqiqat, ko'p arablar Qur'onning balog'ati va fasohatini tushungan. Lekin, yangi avlodlar, ayniqsa arab bo'lmagan musulmon jamiyatlari uni tushuna olishlari uchun olimlar tomonidan turli izlanishlar amalga oshirilgan. Natijada balog'at mustaqil fanga aylangan. Bu davrda yetishib chiqqan tilshunos olimlar va adiblarning ko'pchiligi tafsirshunos edilar<sup>2</sup>. Binobarin, bu davrda yozilgan tafsirlar balog'atga oid ilk ma'lumotlar uchun asosiy manba hisoblanadi.

Islom dini keng tarqalib, arab bo'lmagan xalqlar tomonidan Qur'onni noto'g'ri tushunish xavotirlari paydo bo'lgach, dastlab arab tili grammatikasi qoidalarini tizimlash va mukammallashtirish zarurati yuzaga chiqdi. Mazkur qoidalar qatorida adabiyot masalalari ham ko'rib chiqilganligi sababli balog'at qoidalari shu fanlar doirasida o'rganildi.

Sibavayhiy (vaf. 180/796) o'zining «Al-kitāb» nomli asarida tilga oid masalalardan tashqari balog'at ilmining mavzularidan hisoblangan ega (musnad), kesim (musnad ilayh), gapda maqsadga ko'ra egani taqdim qilish (gapda kesimni egadan avval keltirish), ta'xir (gapda kesimni egadan keyin keltirish), qiyosga teskari holda gap aytish, ta'rif (gapda egani aniq holda keltirish), tankir (gapda egani noaniq holda keltirish), xazf (gapda ega, kesim yoki boshqa gap bo'lagini tushurib qoldirish), amr (fe'lning buyruq mayli) va nahiy (fe'lning inkor shakli) kabi mavzularni ham keltirgan<sup>3</sup>. Mubarrad (vaf. 285/898), o'zining «al-Kāmil» asarida til va adabiyot masalalaridan tashqari, majoz, tashbeh, tartib, majoz, isteora va boshqa mavzular haqida ma'lumotlar keltirgan. Mazkur asarda muallif balog'atning tashbeh mavzusini batafsil bayon qilgan. Johiz «Al-Bayān va-t-tibyān» nomli

<sup>1</sup> <https://islamansiklopedisi.org.tr/belagat>

<sup>2</sup> محمد ابو الفضل علي محمد البغوي، عسكري، كتاب الصنعين. القاهرة: 1952. - ص. 41

<sup>3</sup> محمد ابن حيدر البغدادي. قانون البلاغة. بيروت: 1989. - ص. 73

mashhur asarida fasohat, tashbeh, majoz, isteora, kinoya, muqtazo-l-hol kabi mavzularga ham alohida bob ajratgan.

Qur'ondagi so'zlar, ular ishora qiladigan ma'nolar, sifatlar va harakatlarning ba'zilar juda aniq (muhkam), ayrimlari esa noaniq (mutashābih) ekanini ochib berish uchun Yahyo ibn Ziyod al-Farro (vaf. 207/822) «Ma'āni-l-Qur'ān» (معاني القرآن), Abu Ubayda Ma'mar ibn Musanna (vaf. 209/824) «Majāzu-l-Qur'ān» (مجاز القرآن), Abul Barokat bin Anboriy «E'robu-l-Qur'ān» (إعراب القرآن), Ibn Qutayba (vaf. 276/889) «Ta'wīlu mushkili-l-Qur'ān» (تأويل مشكل القرآن), Abu Is'hoq az-Zajjoj (vaf. 311/923) «E'robu-l-Qur'ān» (إعراب القرآن) va Sharif ar-Roziy (vaf. 406/1015) «Talhīṣu-l-bayān fī mu'jizati-l-Qur'ān» (تلخيص البيان في معجزة القرآن) asarlarini yozganlar<sup>4</sup>.

«Ma'āni-l-Qur'ān», «E'jāzu-l-Qur'ān», «Majāzu-l-Qur'ān», «Mushkili-l-Qur'ān», «E'robu-l-Qur'ān» nomli asarlar<sup>5</sup> balog'at ilmini o'rganishga oid tadqiqotlarning boshlanishi bo'lib, bu asarlarda so'z va ma'no munosabatlari ko'rib chiqilgan.

Islom madaniyatining o'zga madaniyatlar bilan aloqasi natijasida vujudga kelgan ayrim holatlarga ilohiyot olimlarining yechim izlashi balog'at ilmi rivoji uchun sabab bo'ldi. Olimlar Qur'on mo'jizakorligiga e'tibor qaratib, majozni idrok etishning yo'llaridan biri bo'lgan balog'at masalalari bilan mashg'ul bo'ldilar. Qur'onning mo'jizakorligiga doir Johizning «Nazmu-l-Qur'ān» (نظم القرآن), va Muhammad ibn Zayd al-Vositiyning (vaf. 306/919) «Iyjāzu-l-Qur'ān» (إيجاز القرآن), Rummoniyning (vaf. 306/919) «An-nuktatu fī iyjāzu-l-Qur'ān» (النكتة في إيجاز القرآن), Abu Bakr al-Boqiloniyning (vaf. 403/1013) «Mu'jizatu-l-Qur'ān» (معجزة القرآن) va Abul Hasan Abduljabborning (vaf. 415/1025) «Al-muğanni fī abwābi-t-tawhid wa-l-'adl» (المغني في أبواب التوحيد والعدل) nomli asari muhim manba hisoblanadi<sup>6</sup>.

Islom paydo bo'lganidan avval og'zaki ko'rinishda bo'lgan adabiy manbalar Abbosiylar davrining I asridan ijtimoiy va ma'rifiy taraqqiyot bilan birga yozma

<sup>4</sup> Mehmed Abdurrahman, Tertīb-i Cedīd Belâgat-ı Osmâniyye, İstanbul 1309. – S. 64.

<sup>5</sup> Belag'at. Turkiye Diyanet Vakfi Islam Ansiklopedisi. İstanbul: Diyanet İşleri Başkanlığı, 2017.

<sup>6</sup> Abdurrahman Fehmi, Medresetü'l-Arab, İstanbul 1304, s. 120.

shaklda ham rivojlana boshladi. Balogʻatning birinchi davridagi adabiy asarlar adabiy tanqid tamoyillarini belgilashga asos boʻlgan. Ular orasida Muhammad ibn Salam al-Jumahiyning (vaf. 231/846) «Ṭabaqāt fuḥūli-šuʻarāʻ» (طبقات فحول الشعراء), Abu Zayd al-Qurashiyning «Jamharatu ašʻāri-l-ʻarab» (جمهرة أشعار العرب), Ibn Qutaybaning «Aš-šiʻr wa-š-šuʻarāʻ» (الشعر والشعراء), Ibn Muʻtazning «Ṭabaqātu-š-šuʻarāʻ» (طبقات الشعراء) va Abul-Faroj al-Isfahoniyning (vaf. 356/967) asarlarini balogʻatning bu davrdagi nodir manbaʼlardan deb hisoblash mumkin. Adabiy tanqid nuqtai nazaridan nihoyatda samarali boʻlgan bu davrda adabiy tanqid va balogʻat oʻzaro bogʻlanganligi koʻrinadi<sup>7</sup>.

Balogʻatning ikkinchi davri milodiy X asr oxiridan XIV asr oxirigacha davom etgan. Bu davrda yozilgan asarlarda balogʻat fani mavzulari birinchi oʻringa chiqadi. Balogʻat ilmi atamaları paydo boʻlib, bu ilm mustaqil fan sifatida shakllana boshladi. Abu Hilol al-Askariyning «Kitābu-š-šīnāʻatayn» (كتاب الصناعتين), Ibn Rushdning (vaf. 463/1070) «Al-ʻumda» (العمدة), Ibn Sinonning «Sirru-l-faṣāḥa» (سر الفصاحة), Abu Tohir Muhammad ibn Haydar al-Bagʻdodiyning (vaf. 517/1123) «Qānūnu-l-balāḡa»si (قانون البلاغة) – bu davrning eng muhim asarlaridan hisoblanadi. Shuningdek, bu davrning eng mashhur asarlari qatoriga balogʻat ilmi tarixidagi buyuk nazariyotchilardan biri boʻlgan Abdulqohir al-Jurjoniyning «Asrāru-l-balāḡa» (اسرار البلاغة) va «Dalāilu-l-iʻjāz» (دلائل الإعجاز) asarlari ham kiradi.

Zamaxshariy Qurʻon balogʻatini keng yorituvchi «Al-kaššāf ʻan ḥaqāiqi-t-tanzīl» (الكشاف عن حقائق التنزيل) nomli tafsirini Jurjoniyniyning zikr etilgan ikki asari asosida yozgan. Bu davr oxirlarida yozilgan asarlarga balogʻat yoʻgʻrilgan boʻlib, bu ilm oʻziga asta-sekin bayon, maʼoniy va badiʼ ilmlarini birlashtirdi. Fahriddin ar-Roziy (vaf. 606/1209) tomonidan yozilgan «Nihayātu-l-iʻjāz fī dirāyati-l-iʻjāz min Asrāru-l-balāḡa wa Dalāilu-l-iʻjāz» (نهاية الإعجاز في دراية الإعجاز من اسرار البلاغة ودلائل الإعجاز) ushbu davrning boshqa bir asari. Asar Abdulqohir al-Jurjoniyning ikki asari asosida va Rashiduddin Muhammad ibn Muhammad al-Vatvotning (vaf. 573/1177) forscha «Ḥadāiqu-s-sihr fī daqāiqi-š-šiʻr» (حدائق السحر في دقائق الشعر) asarida jamlangan badiʻga oid sanʼatlarni qoʻshib yaratilgan. Abu Yaʻqub as-

<sup>7</sup> أحمد أمين. ظهور الاسلام. – بيروت: دار النجدة العربية، 1969. – ص. 124.

Sakkokiyning (vaf. 626/1229) «Miftohul-ulum» (مفتاح العلوم), Ziyovuddin Ibnu-l-Asirning (vaf. 637/1239) «Maşalu-s-sāir fi adabi-l-kātib va-š-šāir» (مثل السائر في أدب الكاتب و الشاعر), «Al-jāmi'u-l-kabīr fi šinā'ati-l-manzūm mina-l-kalām wa-l-manşur» (الجامع الكبير في صناعة المنظوم من الكلام و المنثور), Ibn Abul-Isba al-Misriyning (vaf. 654/1256) «Badī'u-l-Qurān» (بديع القرآن), «Tahrīru-t-tahrīr» (تحرير التحرير) asari, Yahyo ibn Hamza al-Alaviyning (vaf. 749/1348) «At-ṭarāzu-l-mutaḍammin li-Asrāri-l-balāġa» (الطراز المتضمن لأسرار البلاغة) asarlari shular jumlasidan hisoblanadi<sup>8</sup>.

Balogʻatning uchinchi davri XIV asr oʻrtalaridan XIX asr oxirigacha davom etgan. Bu uzoq davrda barcha fanlarning boshqa sohalarida boʻlgani kabi balogʻat fanlarida ham turgʻunlik davri boʻlgan. Abu Yaʻqub as-Sakkokiyning “Miftāhu-l-ulūm” asarining uchinchi boʻlimi asosda Qavziniy tarafidan «Talḥīşʻu-l-Miftāh» asarini yozilgan. Bugungi kungacha Sakkokiyning kitobiga sharh, keyinchalik, yozilgan xoshiya va izohlar saqlanib qolgan<sup>9</sup>.

Endilikda islom olamida yaratilib turgan alohida asarlar oʻrniga tasniflar, sharhlar va talxislar bilan kifoyalandi va bu holat balogʻatga oid tadqiqotlarda yaqqol namoyon boʻldi.

Bu davrda bayon, maoniy va badiʻ shaklida uchlik tasnifi davom etdi. Bu davrning balogʻat ilmiga oid eʼtiborli asarlari: Azududdin al-Oʻshiyning (vaf. 756/1355), «Al-fawāidu-l-ġiyāsiyya» (الفوائد الغياثية), Sakkokiyning «Miftāhu-l-ulūm» asarining balogʻatga oid uchinchi qismi, Saʼduddin Taftazoniyning (vaf. 792/1390) «Al-muṭawwal ʻala-t-talḥīş» (المطول على التلخيص), Sayyid Sharif al-Jurjoniyning (vaf. 816/1413) «Ḥāşiyatu-s-sayyid ʻala-l-Muṭawwal» (حاشية السيد على المطول), Hasan Chalabiyning (vaf. 886/1481) «Ḥāşiyatu ʻala šarḥi-l-Muṭawwal» (حاشية على شرح المطول), Abul-Qosim al-Lays Samarqandiyning (vaf. 888/1483) «Ḥāşiyatu abi-l-Qāsim al-Laysiy as-Samarqandiy ʻala-l-Muṭawwal» (حاشية ابي القاسم الليسى السمرقندى على المطول), Abdulhakim as-Siyalkutiyning (vaf. 1067/1656) «Ḥāşiyatu ʻala-l-Muṭawwal» (حاشية على المطول)<sup>10</sup>.

<sup>8</sup> Abdurrahman Fehmi, Medresetü'l-Arab, İstanbul 1304, s. 129.

<sup>9</sup> طاه احمد ابراهيم. تعريخ النقد الاديب عند العربية. بيروت: نقد النشر، 1985. – ص. 31.

<sup>10</sup> Abdurrahman Fehmi, Medresetü'l-Arab, İstanbul 1304, s.129.

Bu davrda sharh va izoh tarzida yozilgan bu ishlar islom olamidagi adabiy-ilmiiy tushunchaga oid nozik tahlil va tanqidlarga boyligi bilan ajralib turadi.

Balog‘at fani bu davrgacha bo‘lgan xususiyatlariga ko‘ra, odatda, ikki asosiy maktabga, ya’ni ilohiyot-falsafa maktabi va adabiyot maktabiga bo‘linadi. Suyutiy bu ikki bosqichni fors va faylasuflar maktabi hamda arab va balog‘at maktabi deb ifodalaydi.

A) Kalom va falsafa maktabi. Bu maktabda mantiqiy ta’riflar, tasniflar, falsafiy va mantiqiy atamalar ustunlik qiladi. Bu maktab a’zolari o‘zlarining so‘zomonligi va so‘z boyligi bilan mashhur bo‘lgan kishilardan ko‘plab misollar keltirib, yangicha uslub va tushuncha hosil qilish o‘rniga, mantiq va fazoviy qoidalarga muvofiq tavsifdan iborat tushunarsiz va zich matnni ilgari surishni ma’qul ko‘rdilar. Ular bu matnlarni tushunish uchun sharh, hoshiya va izoh yozish zarurligini tushunib yetganlar. Ayniqsa, imom Sakkokiydan keyingi olimlar bor kuchlarini ana shu qiyin matnlarni tushunishga, bunday asarlarni sinchiklab tahlil va tanqid qilishga sarflaganlar. Ochiq aytganda, ular avvalgi davr asarlari kichik hajmli va qisqa bo‘lganligi, shuningdek, misollar bilan kengroq yoritilmaganligi sababli, asosan, tanqidiy matn tuzishga, avvalgi asarlarni izohlashga va ochishga katta urg‘u berganlar.

Binobarin, ularning balog‘atga oid shaxsiy qarashlari ana shu sharh va izohlarda aks etgan. Islom olamining sharqiy qismida hukmron bo‘lgan bu maktab tamoyillari asosida yozilgan asarlar Abdulqohir al-Jurjoniyniing «Dalāilu-l-i’jāz» asari, Zamaxshariyniing «Al-kaššāf» asari, balog‘atning yetuk olimlaridan Fahriddin ar-Roziyniing «Nihayātu-l-i’jāz fī dirāyati-l-i’jāz» asari, Yusuf Sakkokiyning «Miftāhu-l-‘ulūm» asari, Badriddin ibn Molikning «Al-miṣbāh fī ‘ulūmi-l-ma’āni wa-l-bayān wa-l-badī’» (المصباح فى علوم المعانى والبيان والبدیع) asari, Qazviniyniing «Talḥīṣu-l-Miftāh ila-l-iydāh» (تلخیص المفتاح الى الإيضاح) asari, Sa’duddin Taftazoniyniing “Al-muṭawwal” va «Al-muḥtaṣar» asarlari va ularga keyinroq yozilgan sharhlar, hoshiyalarlar va izohlarni misol qilib keltirish mumkin<sup>11</sup>.

احسن عباس. تعريخ النقد الاديب عند العرب. بيروت: دار العلمية، 1984. – ص. 28. <sup>11</sup>

B) Adabiyot maktabi. Bu maktab a'zolari falsafiy va mantiqiy atama va ta'riflardan ko'ra adabiy did va badiiy mezonlarga asoslanib, ko'plab misol va masalalar asosida adabiy did va so'zlashuv uslubini ochib berishga harakat qilganlar. Bu maktabga mansub asarlar kalom maktabidan ko'ra o'qish va tushunish osonroq bo'lgani uchun ular haqida sharh, izoh va hoshiyalarga ehtiyoj qolmagan.

Arabiston yarimoroli, Iroq, Suriya, Misr va Marokashda hukmron bo'lgan, arab tili ona tili sifatida qo'llaniladigan bu maktab tamoyillari asosida yozilgan asosiy asarlar Ibn Rushk Kayrovoniyning «Al-'umda» (العمدة) asari hamda Ibn Sinon Hafizning «Sirru-l-faşāḥa» (سر الفصاحة) asaridir. Usoma ibn Munkizning «Al-badī' fī naqdi-s-sirr» (البدیع فی نقد السر) asari, Ziyovuddin Ibnu-l-Asirning «Al-jāmi'u-l-kabīr» (الجامع الكبير) va yana Ibn Abul-Isba al-Misriyning «Badī'u-l-Qur'ān» (بدیع القرآن) asari shular jumlasidndir. Yahyo ibn Hamza al-Alaviy bu ikki mazhab qarashlarini birlashtirib, «At-ṭarāzu-l-mutaḍammin li-Asrāri-l-balāḡa» nomli asar yozgan bo'lsa-da, bu asar o'zidan keyin ko'p ommalashmagan. Bir xil sharoitda tug'ilib, rivojlangan bu maktablarni bir-biridan ma'lum chiziqlar bilan ajratib bo'lmaydi. Holbuki, islom olamida balog'at deyilganda birinchi navbatda kalom va falsafa maktabi hamda bu maktabga mansub mualliflarning asarlari ham yodga tushadi.

Balog'atning to'rtinchi davri XIX-asrning oxiridan hozirgi kungacha davom etgan. Bu islom olami Yevropa bilan aloqa qilgandan so'ng ba'zi yangi izlanishlar boshlangan davrdir. Mazkur davrda yetishib chiqqan so'z san'atkorlarini boshqa ko'plab fan sohalarida bo'lgani kabi ikki guruhga bo'lish mumkin: mumtoz badiiyatshunoslikni davom ettiruvchilar va unga zamonaviy jihat bermoqchi bo'lganlar. XX asr notiqularining o'ziga xos jihati shundaki, ular avvalgi davrlarda yozilgan va shu davr boshida nashr etilgan matn, sharh va izohlardan foydalanib, mavzuni o'z fikriga ko'ra ifodalashga kirishadilar. Bu davrda mumtoz uslubni kichik qo'shimchalar bilan davom ettirgan notiqular va ularning ba'zi asarlari quyidagilardir: Husayn ibn Ahmad al-Marsafiyning (vaf. 1307/1889) «Al-waṣīlatu-l-adabiyya ila-l-'ulūmi-l-'arabiyya» (الوصيلة الأدبية الى العلوم العربية) asari; Ahmad al-Hoshimiyning (vaf. 1362/1943) «Jawāhiru-l-balāḡa f-l-ma'āni wa-l-bayān wa-l-

badī'» (جواهر البلاغة فى المعانى والبيان والبدیع) asari; Ahmad Mustafó Marag'í (vaf. 1952) «'Ulūmu-l-balāğā» (علوم البلاغة) asarlaridir<sup>12</sup>.

Balog'atga zamonaviy jihat bermoqchi bo'lganlar, odatda, g'arb adabiyotini o'qigan va o'rgangan, bu adabiyotdagi o'zgarishlardan ta'sirlangan odamlardir. Ular balog'at ilmini adabiy tanqid bilan chambarchas bog'lash va g'arbdagi kabi estetik tadqiqotlardan foydalanish zarurligini ta'kidladilar. Eng muhim vakillari Toha Husayn, Abbas Mahmud al-Akkad va Ibrohim Maziniydir. Ularning ko'pchiligi to'g'ridan-to'g'ri balog'at bilan bog'liq asarlar yozmasalar-da, o'z asarlarida balog'atga o'rin ajratgan odamlardir. Balog'at olimlar va ularning asarlari quyidagilardir:

Amin al-Huliyning «Fannu-l-qawl al-balāğā wa 'ilmu-n-nafs» (فن القول البلاغة و علم النفس) asari; Ahmad Hasan az-Zayyotning «Difā' 'ani-l-balāğā» (دفاع عن البلاغة) va Ali al-Karim – Mustafó Aminning «Al-balāğatu-l-wādiḥa» (البلاغة الواضحة) asari shular jumlasidandir<sup>13</sup>.

Balog'at fani bo'yicha hijriy II asrdan boshlab asarlar yozila boshlangan. Bayon ilmi haqida yozilgan dastlabki asar Abu Ubayda Ma'mar ibn al-Musanniy al-Basriyning «Majāzu-l-Qur'ān» kitobi bo'lib, u ilmi bayonning ilm sifatida shakllanishiga asos bo'lgan. Abu Ubayda alloma Xalil ibn Ahmadning shogirdi bo'lib (vaf. 206/821), Sibavayhning ustozidir<sup>14</sup>.

Ma'oniylar haqida ko'plab mualliflarning asarlari mavjud. Lekin, uslubida yagona bo'lgan, adiblar sardori deya tanilgan Abu Usmon Amr ibn Bahr al-Johizning (vaf. 255/869) «al-Bayān wa-t-tabyīn» hamda «I'jāzu-l-Qur'ān» kitoblari ular orasida alohida ajralib turadi. Undan keyin Abu Abbas al-Mubarrad «al-Kāmil» asari bilan bu fanga o'z hissasini qo'shgan.

<sup>12</sup> Nasrullah Hacımüftüoğlu, "Belâgat Ekolleri ve Anadolu Belâgat Çalışmaları", EAÜİFD, VIII (1988). – S. 115.

<sup>13</sup> Nasrullah Hacımüftüoğlu, "Belâgat Ekolleri ve Anadolu Belâgat Çalışmaları", EAÜİFD, VIII (1988). – S. 117.

<sup>14</sup> تاریخ علوم البلاغة والتعريف برجالها. أحمد مصطفى المراغي. – مصر، 1950. – ص. 24.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. سعد الدين التفتازانى. الشرح المطول لتلخيص المفتاح. - بيروت: دار الكتب العلمية، 2013. - 792 ص.
2. سعد الدين التفتازانى. مختصر المعانى شرح كتاب تلخيص المفتاح. - اسطنبول: دار الشفاء، 2017. - 704 ص.
3. سعد الدين التفتازانى. شرح مفتاح العلوم. - دمشق: دار تقوى الشام، 2020. - 793 ص.
1. ابن تغري بردي. المنهل الصافي والمستوفي بعد الوافي. - ج. 11. - القاهرة: دار كتب، 2005. - 356 ص.
2. ابن حجر العسقلاني. إنباء الغمر بأنباء العمر. - ج. 2. - مصر: المجلس الأعلى للشؤون الإسلامية، 1998. - 582 ص.
3. ابن حجر. إنباء الغمر بأنباء العمر. - ج. 1. - مصر: المجلس الأعلى للشؤون الإسلامية، 1998. - 502 ص.
4. ابن خلدون. تاريخ ابن خلدون. - ليوان، 2008. - ج. 3. - ص. 1101.
5. ابن عيسى بن عبد الله الرماني. النكت في إعجاز القرآن. - مصر: دار المعارف، 1976. - 384 ص.
6. ابن الحاجب. فوائد مختصر الأصول. - ج. 1. - بيروت، 2015. - 475 ص.
7. ابن المثنى البصري. مجاز القرآن \ بتحقيق محمد فؤاد سركين. - القاهرة: الطبعة، 1381 هـ. الجزء الثاني. - 452 ص.
8. ابن بحر الجاحظ. كتاب البيان والتبيين. - مكتبة النور، 2006. - 444 ص.
9. ابن رشيق القيرواني. العمدة في صناعة الشعر ونقده وعيوبه. - القاهرة: المكتبة الخانجي، 2000. - 1509 ص.
10. ابن حجر العسقلاني. إنباء الغمر بأنباء العمر. - ج. 2. - مصر، 1998. - 377 ص.
11. ابن حجر العسقلاني. الدرر الكامنة. - ج. 4. - حيدر آباد: دائرة المعارف العثمانية، 1993. - 505 ص.
12. ابن وهب. البرهان في وجوه البيان. - مصر: مكتبة الشباب، 2017. - 419 ص.
13. أبو الفلاح. شذرات الذهب في أخبار من ذهب. - ج. 8. - بيروت، 1997. - 655 ص.
14. أبو العباس عبد الله ابن المعتز. كتاب البديع \ شرحه وحققه عرفان مطرجي. - بيروت: مؤسسة الكتب الثقافية، 2012. - 110 ص.
15. أبو نصر الفراءي. كتاب في المنطق. الخطابة \ تحقيق وتأليف د. محمد سليم سالم. - مصر: مطبعة دار الكتب، 1976. - 903 ص.

16. أبو يعقوب السكاكي. مفتاح العلوم \ تحقيق د. عبد الحميد الهنداوي؛ علي جارم و مصطفى أمين. البلاغة الواضحة. البيام-المعاني-البديع. – القاهرة، 1999. – 539 ص.
17. احسن عباس. تعريخ النقد الاديب عند العرب. بيروت: دار العلمية، 1984. – ص. 28.
- 18.
19. Muqaddima. Ibn Xaldun al-Hadramiy. 3-jild. – Bayrut, 1957.
20. Ad-duraru-l-kamina fi a'yani-l-miati-s-samina. Ahmad ibn Ali ibn Muhammad ibn Hajar al-Asqaloniy. 5-jild. – Haydarobod, 1983.
21. Kashfu-z-zunuz an asamili kutub va-l-funun. Mustafu ibn Abdulloh Hoji Xalifa. 1-jild. – Damashq, 1994.
22. Rustamiy S. O'rta asrlar balog'at ilmida tilshunoslikka oid qarashlar. – Toshkent, 2019. – 239 b.
23. Mullasadikova N. «Qur'onda ma'oniylarning lingvopoetik asoslari». – Toshkent, 2020. – 52 b.